

AVAZ O'TAR SHE'RLARIDA FOLKLORIZM

Tojimurodova Dinora

Qoraqalpoq davlat universiteti, talaba

Allamberganova Maftuna

Qoraqalpoq davlat universiteti, talaba

Annotasiya: Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyoti vakillari, xususan, Avaz O'tar ijodidagi folklorizmlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: folklor, folklorizm, maqol, Avaz O'tar, ramz.

O'zbek yozma adabiyoti folklordan janr, sujet, vazn va qofiya qo'llashni o'zlashtirgan bo'lsa-da, ma'lum qonuniyatlar asosida uyg'unlashib, badiiy jihatdan taraqqiy etgan. Shu tariqa mif, afsona, rivoyat va boshqa ko'plab folklor janrlarining o'zbek she'riyatiga ta'sir doirasi kengaygan. Alla, yor-yor kabi folklor janrlari istiqloq davri o'zbek she'riyatiga ham ko'cha boshladi. Bu esa, mazkur davr she'riyatida folklorizmning yangi ko'rinishlarini paydo qildi.

“Folklor” va “folklorizm” atamaları orasidagi farqni ilk bor adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqov ilmiy asoslab berdi: “Biror ijodkor asariga biror maqsad bilan kiritilgan folklorga xos barcha materialni folklor deb emas, balki folklorizm atamasi bilan yuritish lozim, chunki unga ijodkor tomonidan muayyan bir ishlov berilgan bo'ladi”. Demak, badiiy adabiyot bilan folklor o'rtasidagi ijodiy aloqa o'ziga xos an'ana bo'lib, ma'lum estetik qonuniyatlar doirasida kechadigan jarayondir. Bu ijodiy aloqalar natijasida badiiy ijodda yuzaga kelgan sujet va obrazlar, mavzu va badiiy detallar badiiy adabiyotga, xususan, she'riyatga ko'chib, ijodkorning badiiy niyati, individualligi va poetik iqtidoriga bog'liq holda talqin qilina boshlagan.

Mumtoz adabiyotida Lutfiy, Navoiy asarlarida folklorizmning go'zal namunalari uchraydi. Lutfiyning “Ayoqingg'a tushar har lahza gisu...” misrasi bilan boshlanuvchi ushbu g'azali besh baytdan iborat bo'lib, har bir baytda shoir bittadan

maqol qo'llaydi:

- 1-maqol: Chiroqning tubi qorong'u.
- 2-maqol: Suv oqayotgan ariqqa qarab oqadi.
- 3-maqol: Kishining ko'zi tarozu
- 4-maqol: Hindu qayerda qon ko'rsa qo'r qar.
- 5-maqol: Tilagan tilagiga yetadi.

G'azallarda maqol qo'llash mumtoz adabiyotda irsoli masal san'ati deyiladi. Lekin maqol folklorizmning mustaqil janri hisoblanadi.

Alisher Navoiy ijodida ham folklorizmni uchratish mumkin.

O'qlaring ko'nglim'ga tushqach, kuydi ham ko'z, ham badan

Kim, kuyar ho'l-u quruq chun naysitong'ga tushti o'q.

Mazkur baytda "O'rmonga (qamishzorga) o't ketsa, ho'l-u quruq barobar yonadi" degan maqol qo'llangan. Ushbu maqol vazn, qofiya, radifga ham ta'sir qilgan va aruzning ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan.

Avaz O'tar milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yirik vakili. Shoir ijodida erkparvarlik, ozodlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari, turmush illatlariga qarshi qaratilgan hajvlar paydo bo'lishi bilan birga bu davrda shoir yuksak insoniy fazilatlarni, chinakam insoniy muhabbatni tarannum etuvchi lirik she'rlar, qit'alar ruboiylar yozdi va u o'z she'rlarida folklorizmga xos obrazlarni ham mahorat bilan qo'llagan. Jumladan, shoirning "Nigorim ketgali aylar bahona" deb boshlanuvchi g'azalida Pari obrazi keltirilgan.

Pari erdimu bilmon ul dilorom,

Ki ko'zdin lahzada bo'ldi nihona.

Pari – sharq xalqlari folklorida keng tarqalgan mifologik obraz, ma'shuqa timsolining ideallashtirilgan shakli, go'zallik ramzi hisoblanadi. Dastlab "Avesto"da payrika shaklida uchraydi. Ertaklarda bu obraz nihoyatda aqlli va donishmand sifatida, dostonlarda esa vafodor ayol, jasoratda va obro'da erkaklardan ham qolishmaydigan, ular bilan birga jangga kirib, qahramonlik ko'rsata oladigan obraz sifatida ta'riflanadi. Bu obraz mumtoz adabiyotimizda ham ko'p uchraydi. Jumladan, Avaz O'tarning yuqorida keltirilgan baytida pari – bir lahzada ko'z

oldidan g'oyib bo'luvchi g'ayriodatiy bir sehrli kuchga ega obraz sifatida tasvirlangan. Ya'ni uning kimligini bilmadi pari edimi yoxud dilorommi?

Shoirning "Ushshoh eli qoshlarining yosidadur, a?" deb boshlanuvchi g'azalida qumri qushi keltiriladi. Qumri mumtoz adabiyotimizda sayroqi qush timsolini bildiradi. Dahr ahli, ya'ni odamlar ko'nglida, dilida nimalar kechayotganini xuddi qumri sayrayotganidek bilsanggina, ya'ni bilamizki qushlar erkin uchadi va erkin sayraydi va shu qushlar kabi insonlarga ham erkinlik berilganda edi, o'zlarining fikrini bemalol bayon qilardi, gaplarini ochiq-oydin ayta olardi va yon-atrofdan, xalq hayotida bo'lib o'tayotgan voqealardan xabardor bo'lardi, degan ma'no-mazmunga ishora bor.

Dahr ahli dilin qumri kibi vola qilurg'a,
Har yong'a ravonlig' qadi zebosidadur, a?

Avaz O'tar muxammaslarida ham ko'plab folklorizmlarni uchratish mumkin. Quyidagi muxammasida gul va bulbul ramzlari mavjud. Ramz – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usulidir. Ramz barcha xalq folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmunni ifodalaydi. Adabiyot tarixida asrlar davomida ishlatilib kelinayotgan ramziy obrazlar tizimi ham mavjud: "gul" – go'zallik, ma'shuqa; "bulbul" – oshiq ramzini ifodalaydi.

Yor bir yo'l ko'zlarim yoshini silmaydur hanuz,
Rashk ila shum muddaiy bag'rini tilmaydur hanuz,
Shahdi la'lidin o'luk jismim tirilmaydur hanuz,
G'unchalar ochildi, vah, ko'nglim ochilmaydur hanuz,
Bulbul oso xotirim gul mayli qilmaydur hanuz.

Berilgan muxammasning oxirgi ikki misrasini tahlil qiladigan bo'lsak, shoir o'zini bulbulga yorni gulga o'xshatyapdi, g'unchalar ochildi-yu negadir hali hanuzgacha mening ko'nglim ochilmadi deyilgan. Bulbul orqali oshiq obrazi ifodalanyapdi va gul, ya'ni yor, ma'shuqa go'zalligi oshiqning aql-u hayolini oldi, xotirasini egalladi, ammo bunga gul hech parvo qilmadi, degan ma'no mazmun anglashiladi.

Quyidagi muxammasda ham gul, bog‘, bog‘bon ramzlari qo‘llangan. Bu ramzlar orqali shoir o‘zi yashagan davr muhitini tasvirlab bergan. Ya’ni bog‘ aro deb o‘sha zamoni, ey bog‘bon deya insonlarga, xalqqa qarata murojaat qilgan. Xoh o‘z yurtida, xoh o‘zga yurtda yashasang ham, umr yeldek o‘tguvchiligini, uni faqat aysh- u ishratda behuda o‘tkazmaslikka ishora bor.

Hodisoti dahrdin topmoq uchun tokim amon,
Sarv ila gul soyasida aylabon o‘zga makon,
No‘sh etarsan aysh-u ishrat bodasini har zamon
Umr yeldek o‘tmasun debsan magar , ey bog‘bon
Kim yaqosi choksiz gul butmamish bu bog‘ aro.

Umuman, mumtoz va zamonaviy o‘zbek adabiyoti vakillari ijodida folklorizmdan unumli foydalanilgan. Folklorizmlar Avaz O‘tar ijodida ham shoir ifodalamoqchi bo‘lgan fikr, tuyg‘uni o‘quvchiga aniqroq, tushunarliroq, yaqqolroq tasvirlashga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Radjapbaevich, K. N., & Durdona, A. (2022). Ancient turkish language and koyn event.

2. Киличов, Н. Р. (2021). «ОЛТУН ЁРУФ» АСАРИДА ИНСОН ТАНА АЪЗОЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛЕКСЕМАЛАР. *Вестник КГУ им. Бердаха*. №, 2, 242.

3. Kilichov, N. R., & Kabulov, I. (2023). “KÖŃÜL” KOMPONENTLI FRAZELOGIZMLARNING BA’ZI XUSUSIYATLARI (Maxtumquli she’rlari misolida). *ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O’RNI*, 2(6), 130-134.

4. Kabulov, I., & Kilichov, N. R. (2023). MAXTUMQULI SHE’RLARIDAGI BA’ZI SOMATIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI. *Zamonaviy fan va ta’lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal*, 1(8), 72-79.

5. Radjabbayevich, K. N. (2023). ELEMENTS OF THE KIPCHAK DIALECT IN ANCIENT TURKIC LANGUAGE (In the example of the lexicon of the “OltunYoruk” work). *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 2(5), 108-114.

6. Кабулова, З. А. (2020). ЕДИНСТВО СОДЕРЖАНИЯ И ФОРМЫ В УЗБЕКСКОЙ И КАРАКАЛПАКСКОЙ ПОЭЗИИ. *Евразийский Союз Ученых*, (6-7 (75)), 61-63.

7. Кабулова, З. (2019). Образность в современной поэзии. *НАУКА XXI ВЕКА*, 26.

8. Boltayeva, V., & Kabulova, Z. A. (2022). The artistic interpretation of the person and the environment in the story (in the person of akbarmirza). *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(5), 148-150.

9. Adilbaevna, K. Z. (2019). SOCIO-PSYCHOLOGICAL BASIS OF MODERN POETRY. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(11), 37-42.

10. Янгибаева, Н. (2022). Статьи по языкознанию в журнале «Образование и педагог».

11. Назира, Ю. (2019). К МОРФОЛОГИЧЕСКИМ И ОРФОГРАФИЧЕСКИМ ПРОБЛЕМАМ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ В 1920-Е ГОДЫ XX ВЕКА. *АНГЛИСТИКУМ. Журнал Ассоциации-Института английского языка и американских исследований*, 7(12), 35-41.

12. Gulmanovna, Y. N., & Fauziya, M. (2023). O ‘zbek va ingliz tilida frazeologizmlarning qo ‘llanilishi. *Gospodarka i Innowacje.*, 37, 196-198.

13. Yangibaeva, N. (2018). STUDYING OF THE UZBEK DIALECTS IN THE 1920 YEARS. In *Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования* (pp. 54-57).

14. Gulmanovna, Y. N. (2023). TIL O ‘QITISH DASTURLARINING TA’LIMDAGI O ‘RNI. *Miasto Przyszłości*, 35, 247-249.

15. Gulmanovna, Y. N., & Matmuratova, F. (2023). The Fascinating Origins of English Phrases. *Miasto Przyszłości*, 37, 197-198.

16. Ibragimova, Z. (2022). THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOLERS AND THE PSYCHOLOGICAL DESCRIPTION OF THEIR ACTIVITIES. Science and Innovation, 1(5), 416-420.

17. IBRAGIMOVA, Z. Y., & YABBARBERGENOVA, S. WORDS OF POSITIVE WISHES OF THE UZBEK AND KARAKALPAK PEOPLES AROUND THE TABLE. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (3), 685-688.

18. Ibragimova, Z. (2023). MULTI-MEDIA COMPETENCE AS A COMPONENT OF FUTURE TEACHER TRAINING LA OF THE GERMAN LANGUAGE. Science and innovation, 2(B10), 356-359.